

MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA HAQIDA

Abdulxayeva Muslima Jahongir qizi
O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada shaxsning barkamol inson bo'lishida uning ma'naviyati, olijanob insoniy fazilatlarni egallaganligi, bilimdonligi, kasb sirlarini mukammal bilishi va amaliy faoliyatlarida qo'llay olishi ulkan ma'no kasb etishi, bunda ma'naviyatning zarur belgilaridan biri iymon-e'tiqod, vijdonning butunligi xaqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy tarbiya, shaxs, iroda, sabr-qanoat, iymon-e'tiqod, vijdon, shukronalik.

Jamiyat va uning taraqqiyoti haqida so'z borganda albatta unda faoliyat yuritadigan kishilarning aqliy, axloqiy, ruhiy va jismoniy ulg'ayishi qay darajada ekanligi e'tiborga olinadi. Agar shaxs kamolati har taraflama bo'lsa, u qanday sohada ishlashidan qat'iy nazar o'zi va o'zgalarga foydasi tegadi, jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarning ortishiga hissa qo'shadi.

Shaxsning barkamol inson bo'lishida uning ma'naviyati, olijanob insoniy fazilatlarni egallaganligi, bilimdonligi, kasb sirlarini mukammal bilishi va amaliy faoliyatlarida qo'llashi ulkan ma'no kasb etadi.

Jamiyatning barqarorligi, hozirgi davrdagi ilm-fan, texnika va texnologiyalarning kun sayin takomillashib borishi kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka, yaratuvchanlikka da'vat etadi. Ertangi kunning kechagi va bugungi kundan yaxshiroq bo'lishiga, mazmunli va samarali o'tishiga intiladi.

Qadimdan xalqimiz o'z oldiga ulug'vor maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lida paydo bo'ladigan muammolarni sabr-bardosh, aql va omilkorlik bilan hal etib kelganlar. Ota-bobolarimiz yashagan muhit, tabiiy sharoit va turmush tarzi aql bilan ish qilishni, o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanishni, uyushqoqlikni, bir-birlariga ko'maklashishni, halol, pokiza va mehnatsevar bo'lishni taqoza etgan. Bu fazilatlar minglab yillar davomida yosh avlodning ongiga singdirib borilgan. Yoshlarning ma'naviy -axloqiy tarbiyasi faqat bama'ni so'zlarni aytish bilangina cheklanib qolmasdan, asosan shaxsiy ibrat-namuna ko'rsatish orqali, kundalik turmush tarzi ta'sirida tarkib topgan. Shu sababdan aksariyat ko'pchilik yoshlar ruhan pok, ma'naviy dunyosi boy, aql-zakovotli, imon- e'tiqodlari butun bo'lib ulg'aymoqdalar.[1]

Hozirgi jadal globallashuv jarayoni amalga oshayotgan bir davrda yoshlarning ma'naviy- axloqiy tarbiyasi bir lahza bo'lsada ota-onalarning, ustoz-murabbiylarning, butun jamoatchilikning e'tiboridan chetda qolmasligi zarur. Globallashuv ezgulikka

xizmat qilsada, ba'zan uning imkoniyatlaridan yovuz niyatli kimsalar ham foydalanib qolishga harakat qiladilar. Bunday kuchlarning dunyoda kam emasligi hammaga ayon. Turli yo'llar va vositalar bilan yoshlar ongiga ta'sir etish, eng muqaddas his-tuyg'ularni, diniy ishoch va e'tiqodni saxtalashtirib g'araz maqsadlari yo'lida foydalanishlari mumkin. Shuning uchun ham ma'naviy tarbiyani bugungi kunning eng dolzarb muammosi deb qarash ayni haqiqat hisoblanadi.

Pedagogika fanida ma'naviy-axloqiy tarbiya haqida xilma-xil fikirlar aytilgan, turlicha yondashuvlar mavjud. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning mazmuni, metodlari, vosita va shakllari atroflicha ishlab chiqilgan. Ularga asoslangan holda boy amaliy tajriba to'planganini e'tirof etish o'rindir.

Insonning ruhan pokligi uni barcha boshqa mavjudodlardan ajratib turishi bilan bir qatorda, har bir kishining o'ziga xosligi, betakrorligini ham ifodalaydi. Eng asosiysi ruhiy poklik inson miyasining normal funktsiyasini, aqliy jarayonlarining mukammalligini, tafakkurining keng qamrovliligini o'z ichiga oladi. Xarakter, temperament, irodaviy sifatlarning to'g'ri shakllanishi ham ruhiyat pokligining belgilari jumlasiga kiradi. Insonda mavjud bo'lgan psixik jarayonlar hayot davomida takomillashib boradi. Sezgi, idrok, diqqat, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqa sifatlarning barqarorlashuvi ruhiy poklikka olib keladi. Shuning uchun ham insonning ruhiy poklanishi ma'naviyatining asosiy belgilaridan biri deb hisoblangan.[3]

Qalban ulg'ayish insondagi yurak bilan bog'liq bo'lgan fazilatlarni aks ettiradi. Ichki his-tuyg'ularning eng sof holda namayon bo'lishini, o'ta haqqoniyligini ifodalaydi. Shuning uchun ham qalbi pok, chin dilli, ko'ngli ochiq degan iboralar ma'naviyatli kishilar haqida tez-tez ishlatiladi. Aksincha ma'naviyati buzuk kishilar to'g'risida ko'ngli qora, dilozor, qallob, berahim sifatlari qo'llaniladi. Shuning uchun ham qalbning ulg'ayishi, kishilarni samimiyatga etaklovchi his-tuyg'ularning ortib borishi ma'naviyatni boyitadi.

Odamning ichki dunyosi sirli xilqat bo'lib, tashqi qiyofasida, xatti-harakatida, umuman faoliyatida ma'lum darajada aks etadi. Ularga asoslanib ichki dunyoga baho beriladi. Lekin uni mukammal anglash juda qiyin. Ba'zan insonning o'zi ham ichki dunyosida sodir bo'layotgan kechinmalarni to'la tushunib etmaydi. Bunday hollarda yolg'iz qolgisi, dunyoviy tashvishlardan holi bo'lib, ichki kechinmalarini tartibga solishga harakat qiladi. Kutilgan va kutilmagan baxt-saodatga erishish, omad va omadsizlik, xursandchilik va tashvish, asabiylashish, xavf-xatar, kayfiyatning ko'tarinki yoki tushkun bo'lishi va boshqa holatlar ichki dunyoda muvaqqat o'zgarishlarni hosil qiladi. Bunday holatda inson o'zini to'g'ri boshqarishi, qo'lga olishi, xatti-harakatlarini nazorat qila bilishi foydalidir. Ichki dunyoni ezgulikka qaratilgani ma'naviyatni baquvvat qiladi.[2]

Hayot so'qmoqlaridagi yutuq va kamchiliklar iroda orqali boshqariladi. Har qanday sharoitda, har qanday holatda irodasi mustahkam kishi orqaga chekinmaydi,

olg'a intiladi. O'z imkoniyatlarini to'la ishga solishga muyassar bo'ladi. Irodasi bo'sh kishi boshlagan ishini oxriga etkaza olmaydi, ozgina qiyinchilik va muammoga duch kelganda ma'naviy inqirozga tushib qoladi. Shuning uchun ham yoshlarni irodasi baquvvat bo'lib o'sishlariga e'tibor qaratish, ibrat-namuna ko'rsatish kattalarning burchi hisoblanadi.

Inson ma'naviyatining zarur belgilaridan biri iymon-e'tiqodning butunligidir. Qur'oni Karimda, payg'ambarimizning hadislarida va boshqa diniy manbalarda iymonning shartlari aniq ko'rsatib berilgan. Eng asosiysi Xudoga, dinga bo'lgan ishonch-e'tiqod iymonlilikning bosh shartidir. Iymonli kishi diniy qonun-qoidalariga amal qiladi. Faqat savob ishlar bilan shug'ullanish, insonparvarlik, vatanni sevish, hayotini halol-pokiza o'tkazish, ajdodlar ruhini shod etish, yosh avlodga mehirmuhabbatli bo'lish va boshqa fazilatlar iymonning butunligini ta'minlaydi.

Shu o'rinda ishonch-e'tiqodni keng ma'noda tasavvur qilish foydali ekanligini takidlab o'tmoqchimiz. Ayrim kishilar dinga nisbatangina ishonch-e'tiqodli bo'lish bilan cheklanadilar. Aslida ishonch-e'tiqod yashayotgan jamiyatga, milliy mafkura va g'oyaga, bugungi va ertangi kunning yanada farovon bo'lishiga, kundalik turmushda amal qilinadigan qonun-qoidalariga, milliy an'ana va qadriyatlarga nisbatan ham qaratilgan bo'lmog'i darkor. [1]

Insonning ma'naviy dunyosi vijdonning uyg'oqligisiz juda qashshoq bo'lib qolar edi. Vijdon kishilarning ichki va tashqi qiyofasini tartibga solib turuvchi, butun faoliyatini ezgulikka yo'naltiruvchi, o'zgalar oldida va jamiyatdagi mas'ullik tuyg'usining namayon bo'lishidir. Vijdon insof, diyonat, halollik, sofdillik, rostgo'ylik, kamtarlik, adolatlilik kabi axloqiy fazilatlarni vujudga keltiradi. Vijdoni uyg'oq kishi hech qachon brovlarning haqiga hiyonat qilmaydi va boshqalarni ham vijdon amri bilan ish qilishga da'vat etadi. Vijdon kishilarda sabr-qanoat, shukuronalik tuyg'ularni qaror toptiradi. Bozor munosabatlari sharoitida ayrim vijdoni sustroq shaxslar ba'zi o'rinlarda nopoklik yo'lga kirib qolishlari, jamiyat va o'zgalarning manfaatini oyoqosti qilish holatlari ko'zga tashlanadi. Ma'naviyatning boyligi, vijdonning sofligi kishilarni bunday illatlardan xalos etadi.

Dunyoqarash qanchalik teran, keng qamrovli, haqqoniy bo'lsa uning sohibi shu darajada kamolatli shaxs hisoblanadi. Barkamol shaxs birinchi navbatda o'zligini anglaydi. Kimlarning vorisi ekanligini, kimlarning ruhi poklarini shod qilishi kerakligini, buning uchun qanday fazilatlarni egallash zarurligini bilib oladi. Ajdodlar qoldirgan boy ma'naviy va moddiy merosni qadrlaydi. Uni boytishga, to'ldirishga, rivoj toptirishga harakat qiladi.

Komil inson Vatanini sevadi, uni butun dunyoda yagona ekanini, gullab yashnashini istaydi va holi qudrat unga hissa qo'shadi. Komil inson o'zgalarni hurmat qiladi. Do'stga do'st bo'ladi, dushmonga kim ekanligini ko'rsatib qo'yaoladi. Komil inson o'zidan keyingi avlodlarga o'chmas iz qoldiradi. Bu iz "Milliy tiklanishdan,

milliy yuksalish sari borayotgan davlatimizning turli jabhalarida taraqqiyotni ta'minlaydi.

Komil inson el-yurtning og'irini engil qilishga intiladi. Birovlarning muammosini hal etishga ko'maklashadi. O'zi boshqalarga muammo keltirib chiqarmaydi. Komil inson o'z oldiga ulug'vor maqsadlar qo'yadi. Boshqalarni o'z ortidan ergashtiradi. O'zi tanlagan to'g'ri yo'ldan adashmaydi. Turli xil bo'xton va fitnalarga aldanib qolmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'zbek xalqida ma'naviy boylik boshqa barcha boyliklardan ustun turgan va hozirda ham eng ulug'vor xazina hisoblanadi.

Uni yanada boyitish ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu vazifani hal etish uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoit yaratilganligi butun bashariyat tomonidan tan olinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat. – Toshkent:O'qituvchi, 2010. – 160 b.
2. Abdurauf Fitrat. Farzand tarbiyasi G'G' Tarbiya. 2005. №1. B. 27–30.
3. O. Suvanov, Ya. Nurumbekova «Pedagogik mahorat» o'quv-qo'llanma. Guliston. Ziyo. - 2020.